



BUYUK AKBAR DAVRIDA BARPO ETILGAN BOG'LAR

Mamasidikov Abdug'ani Hayrullo o'g'li¹,
Isajonova Zahroxon Mirzohidjon qizi²

¹Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi,

²Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6477505>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-aprel 2022

Ma'qullandi: 10-aprel 2022

Chop etildi: 15-aprel 2022

KALIT SO'ZLAR

*Buyuk Akbar, boburiylar
sulolasi,*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Boburiylar sulolasining buyuk podshohlaridan bo'lgan Akbarshoh davrida Hindistonda barpo etilgan bog'lar va ularning uslublari, mahobati, ta'rifi haqida so'z yuritiladi.

Buyuk Akbar Hindiston tarixida faqatgina harbiy yurishlari bilan Hindiston yarim orolini zabt etgan hukmdor emas, o'z davrida huddi bobosi kabi o'zidan beqiyos inshootlar qoldirgan bunyodkor hukmdor hamdir. Uning davrida bunyod etilgan bog'lar me'morchiligi yuksak saviyada ishlangan beqiyos bog'lardir.

Buyuk Akbar Hindistonda 1556- yildan 1605- yilgacha hukmronlik qilgan va o'zining san'at va madaniyat, me'morchilik sohasidagi faoliyati bo'yicha Boburiylar sulolasidagi podshohlari ichida eng buyuklaridan biri hisoblanadi.

Akbarshoh davrida Hindiston madaniy, san'at, ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham ancha yuksala boshladi. Buyuk Akbar davrini yosh avlodlar uchun qolgan beqiyos bog'lari va inshootlarisiz tasavur qilish qiyin.

Buyuk Akbar davrida barpo etilgan bog'lar esa o'sha davr me'morchiligining eng sara namunalaridan hisoblanib tarixda chuqur

iz qoldirdi. Bobur bundyod etgan imperiyasida farzand va nabiralari bo'lmish Humoyum, Akbar, Jahongir, Shohjaxon, Avrangzeblar o'z bobolari bunyod etgan saltanatini yanada mustakamlab, qudratini cho'qqisiga olib chiqqanlar. Ular hozirda xalq xotirasida e'zozlanmoqda va ular qurdirgan maqbarayu saroylar, chorbog'u bog'larning madaniyatini qator jahon olimlari o'rganib kelmoqda va kelajakda ham yangidan yangi avlodlar tomonidan ehtirom ila yodga olinadi desak adashmagan bo'lamiz.

Akbarshoh Kashmir vodiysiga qadami tekkan birinchi boburiy shoh edi. Srinnagarda Dal ko'li bo'yida u "Nasim bog' "degan bir bog' barpo qildirgan. Lekin bu bog'ning devorlari, na favvoralaruyu va na ariqlari bizning davrimizgacha yetib kelgan. Faqat chinorlarigina saqlanib qolgan xolos.

Akbarshoh Mirzo yoz kechalari o'tirish uchun Sekrida tosh va marmardan baland



bir shiypon- mahobatli ko'shk ham qurirgan ekan. Aytishlaricha, ko'shk rejasi va shaklu-shamoyilini Akbarshohning o'zi chizib rejalashtirib bergan.

Ko'shkning chor atrofida hovuz va bog' bo'lgan. Bog'dagi anvayi gular muattar hid tarqatgan, salqin hiyobonlar dilga huzur bag'ishlagan. Hindistonda Buyuk Akbarshoh bunyod etgan qasr va bog'lar bir biridan chiroyli, orasta va go'zal bo'lgan.

Movarounnahr va Xurosonda Temuriylar chorbog'larni shahar atrofida tabiatning nafis joylarda bog'-royishchilik bilan san'atining go'zal namunalari timsolida bunyod etgan bo'lsalar, Boburiylar sulolasi Hindistonda chorbog' uslubini shahar ichiga, me'moriy obidalar muhitiga olib kirib, bu san'atga yangi yonalish beradilar. Yangi uslublardan biri bu Dehlida Akbarshoh otasi Humoyunga bag'ishlab 1566 yilda bunyod etgan "maqbara-bog'"ida ko'ramiz. Qizil qumtoshdan oq marmardan bila sayqal berib ishlangan bu maqbara-bog' Boburiylar sulolasi me'morchiligining Dehlidagi dastlabki mo'jizakor namunalaridan biri bo'lgan. Maqbara atrofiga bunyod etilgan chorbog'

bu yerda maqbara uchun manzaraga boy, jozibador, kishi ruhini ochadigan me'moriy muhit vazifasini bajargan. Humoyun maqbara chorbog'I Dehlida hozir ham saqlanib qolgan eng go'zal va mahobatli obidalaridan biridir.

Maqbara-bog'lardan yana biri Agradagi Sekandrda o'ziga atab qurdirgan maqbara atrofida bog'dir. Bu bog' Temuriylar an'alariga xos bizgacha yetib kelgan chorbog' uslubidagi orombaxsh bog'lardandir.

Yuqoridagi fikrlardan shuni ko'rish mumkinki, Boburiylar yaratgan bog'lar g'oyaviy jihatdan ikki hil: birinchisi, podshohlarning o'zlari va xos kishilari hordiq chiqargan istirohat bog'lari, ikkinchisi esa ularning maqbaralari joylashgan bog'lari, yani maqbara bog'lardir.

Bulardan shuni xulasi qilish mumkinki, Buyuk Akbar Hindiston tarixida faqat siyosat va qilgan islohotlari bilangina iz qoldirgan emas, aksincha, uning qurdirgan inshootlari va bunyod etgan bog'lari Hindiston tarixini boyitib kelajak avlodlar uchun boy tarixni qoldirgan buyuk podshohdir.

References:

1. Axtam O'rolov. Nusratilla Safarov "Boburiylar va Bunyodkorlik" Samarqand-1995
2. Ansoriddin Ibrohimov "Boburiylar merosi" – T., "Mehnat", 1993
3. R.Shamsutdinov, F.Abdullayev, B.Rasulov, O'.Ubaydullayev, S.Hoshimov "Buyuk boburiylar sulolasi" – A., "Andijon" n, 1993
4. Ansoriddin Ibrohimov "Boburiylar merosi" – T., "Mehnat", 1993
5. Vistara. Arxitektura Indiya, Bombey, 1986
6. Yunusova Buhajal Alimovna, & Sobirov Jamshidbek Zokirjon o'g'li. (2022). AKBARSHOH DAVRIDA BEQIYOS INSHOOTLARNING BARPO ETILISHI. INNOVATIVE RESEARCH IN SCIENCE. International scientific-onlayn conference 15-17 p.